DIRIJYORNING TALABALAR BILAN MUSIQIY PAUZALAR USTIDA ISHLASHI

Qudratov Orifjon Alimovich – *o‘qituvchi*
arif.alimovichbfc@gmail.com
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “Musiqali, teatr san’ati” kafedrasi

РАБОТА ДИРИЖЁРА СО СТУДЕНТАМИ НАД МУЗЫКАЛЬНЫМИ ПАУЗАМИ

Кудратова Орифжона Алимовича – *преподаватель*
Государственный совет по делам культуры и искусства Узбекистана
"Музыкальное, театральное искусство"кафедры

THE CONDUCTOR’S WORK WITH STUDENTS ON MUSICAL PAUSES

Orifjon Alimovich Kudratov – *lecturer*
State Arts and Culture of Uzbekistan Institute of Musical and Theater Arts department

Tayanch so‘zlar: dirijyorlik, musiqiy pauza, musiqiy dramaturgiya, sahna ijrosi, vokal ijrochilik, ichki kechinma, psixologik ifoda, obraz talqini, sahna madaniyati, ritm va temp, ijro mahorati, teatr pedagogikasi, musiqiy tafakkur.

Rezyume. Ushbu maqolada dirijyorning talaba ijrochilar bilan musiqiy pauzalar ustida ishlash jarayoni va uning sahnaviy ijroga ta’siri tahlil qilinadi. Musiqiy pauzalarning dramatik va psixologik ahamiyati, obrazning ichki kechinmalarini ochib berishdagi o‘rni hamda dirijyorning pedagogik yondashuvi yoritiladi. Nurxon misolida pauzalarni to‘g‘ri talqin qilishning ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Ключевые слова: дирижирование, музыкальная пауза, музыкальная драматургия, сценическое исполнение, вокальное исполнительство, внутреннее переживание, психологическая выразительность, сценический образ, сценическая культура, ритм и темп, исполнительское мастерство, театральная педагогика, музыкальное мышление.

Резюме. В данной статье анализируется процесс работы дирижёра со студентами-исполнителями над музыкальными паузами и их влияние на сценическое исполнение. Раскрывается драматическое и психологическое значение музыкальных пауз, их роль в передаче внутренних переживаний образа, а также педагогический подход дирижёра. На примере Nurxon показана значимость правильной интерпретации пауз.

Keywords: conducting, musical pause, musical dramaturgy, stage performance, vocal performance, inner experience, psychological expression, stage image, stage culture, rhythm and tempo, performance mastery, theatre pedagogy, musical thinking.

Summary. This article analyzes the process of a conductor working with student performers on musical pauses and their impact on stage performance. It highlights the dramatic and psychological significance of musical pauses, their role in expressing a character’s inner emotions, and the pedagogical approach of the conductor. The importance of correct interpretation of pauses is demonstrated through the example of Nurxon.

Tarixdan ma’lumki, O‘zbekistonga musiqali drama janri 20-asrning birinchi yarmida Ozarbayjondan kirib kelgan. Bu davrda musiqali drama janriga yondoshuv turlicha bo‘lgan. Dastlab o‘zbek musiqali spektakllari o‘zbek xalq cholg‘u asboblari jo‘rligida ijro etilgan. 1939 yildan keyin kompozitor To‘xtasin Jalilov va bir qancha mutaxassislarning say-harakatlari bilan orkestrga yevropa orkestrlarida qo‘llanuvchi cholg‘u asboblari kiritilib, bugungi musiqali teatr orkestri shakliga olib kelingan. Bu yangi shakldagi orkestrda dirijyorga alohida mas’uliyat yuklatilib, musiqiy spektakllardagi dramatizmni kuchaytirishda keng foydalanilgan. Dirijyor nafaqat partiturani o‘qish qoidalarini mukammal bilishi, balki turli xil musiqiy uslublarni ham yaxshi bilishi lozim. Bundan tashqari dirijyor rejissyor bilan bab-barovar fikrlaydigan, spektaklning rivojini ko‘ra oladigan, kuchli rejissyorlik tasavvuriga ega ijodkor shaxs bo‘lishi lozim. Dirijyor spektaklning postanovkachi rejissyori bilan hamfikr bo‘lib spektaklning rivojiga, voqealarning dinamikasiga erishishga, ariya va duetlar oddiy qo‘shiq bo‘lib qolmasdan, aksincha, voqealar jarayonidagi musiqiy hatti-harakatga aylanishiga xizmat qila bilishi hamda musiqiy spektalning musiqiy dramaturgiyasini ochishga xizmat qilgan. Aslida ham musiqiy teatr talablari bo‘yicha shunday bo‘lishi kerak edi. Biz buni tasdiqlash uchun birinchi o‘zbek musiqali dramalaridan biri bo‘lgan “Nurxon” musiqali asari misolida fikrimizni davom ettirishni lozim deb bildik. Ma’lumki, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida “Nurxon” musiqali dramasidagi

Kimyo obrazini O‘zbekiston xalq artisti Lutfixonim Sarimsoqova mahorat bilan ijro etgan. L. Sarimsoqova ayniqsa, Kimyoning “To‘rt devor qo‘ynida yo‘qdur yuragi qon men kabi” monolog-ariyasini juda ham ta’sirli qilib ijro etgan. Mana shu ariya jarayonidagi musiqali psixologik pauzada tomoshabinlar churq etmay tinglar, beixtiyor ko‘zlaridan yosh kalkib chiqar edi. Negaki, L.Sarimsoqovaning ko‘zlarida yosh, hayajonining cheki yo‘q, dam eri ketgan tarafga najot-iltijo bilan qarab, undan insofini so‘rar, ayni damda, birdan ko‘z oldiga qizi Nurxon kelib, u bilan hayolan suhbat qilar, dam uning baxti karoligidan qalbi ezilar, larzaga kelar edi. Tomoshabinlar uning ko‘zlarida, imo-ishoralarida, yurish-turishlarida, ichki dunyosida kuchli qarama-qarshi fikrlar kurashi sodir bo‘layotganini guvoxi bo‘ladilar. Ich-ichidan ezilib oqayotgan ayolning dardu alamlari, xasratlari musikali sukut orqali ham ularning qalbiga yetib borar, ularda kuchli darajada ta’sirlanish hosil qilardi. Hojiga nisbatan qalblarida la’nat toshi otilar, onaga yurak-yuraklaridan achinar edilar. Ular xatto o‘zlari zalda butun vujudi bilan Kimyoning ariyasidan qattiq ta’sirlangan edilar. Xattoki, “Nurxon” musiqali dramasida ishtirok etuvchi aktyorlar, xor va balet artistlari Xoji va Kimyo sahnasini, Xoji: “ Qizimni Sarkorga beraman, indinga to‘y, agar biron narsa payqab qolsam ertaga xotinim o‘ldi, deb ovoza qilish ham ko‘limdan keladi” — deb chiqib ketgandan keyingi Kimyoning “To‘rt devor” ariyasini nixoyatda berilib, uning dardiga hamdard bo‘lib eshitishar, qalblari kuchli darajada to‘lg‘onar, zarur bo‘lgan xissiyot uyg‘onar edi. Zaldagi tomoshabinlar L.Sarimsoqova ijro etgan Kimyoning ariyasidan ta’sirlanib, ko‘zlari jiqqa yoshga to‘lib, yig‘lab o‘tirar edilar.

Shuni ham aytish kerakki, kompozitor To‘xtasin Jalilov Kimyoning ichki dunyosini, fe’l-atvorini, qalb kechinmasini ariyada maxorat bilan yaratgan. Asardagi xotin-qizlar ozodligi uchun olib borilgan kurash g‘oyasini ilgari surishda T.Jalilov yaratgan musiqaning xissasi katta. Musiqali dramalardagi kuy, ariya, duetlar tinglovchi-tomoshabinga aloxida xuzur yoki iztirob bag‘ishlab, qahramonning ichki dunyosiga yanada chuqurroq kirib borishga imkon yaratadi. Nurxonning otasi Xoji birinchi parda oxirida Haydar bilan to‘qnashgandan so‘ng, qizini tezda Sarkorga berishga ahd qiladi. Chunki Haydarning nashtardek so‘zlari uni larzaga soladi. Shu sababli, u qizini Haydardek “diyonati yo‘q yalang oyoqqa” berishga tish-tirnog‘i bilan qarshi chiqadi, qizini Sarkorga berishga oshiqadi. Xojining mazkur qarori Kimyo qalbini o‘rtantiradi. Kimyo o‘zining noroziligini zolim, joxil erga dangal aytadi. Axir uning o‘zi ham Xojining uyida ro‘shnolik ko‘rmadi, inchunin, u yakka-yu yagona qizini o‘zi kabi zindonda qiynalishini istamaydi. U o‘z qizini sevganiga berish tarafdori. Ammo Kimyoning bu harakati Xoji tomonidan keskin to‘siqqa uchraydi. Xojining qarori tufayli Kimyo og‘ir, kuchli iztirobli vaziyatda qoladi. Kimyo sahnada o‘zi yolg‘iz. Ezilib kuylaydi. “SHo‘rlik qizim.. “SHo‘rlik qizim...” so‘zidan keyin Kimyo o‘pkasi to‘lib gapirolmaydi, nafasi bo‘g‘iladi, u fikrlar daryosiga sho‘ng‘iydi, qalbi ezilib oqadi, yurak-bag‘ri o‘rtanadi, yolg‘iz qizining tashvishi, Nurxonning ham o‘zi singari azob-ukubat otashida lovullab yonishini chuqur xis qiladi. Kimyoning “SHo‘rlik qizim” deyishi bilan orkestrda mungli kuy sadolari eshitiladi. Bu musiqa Kimyoning ichki dunyosini chuqurroq ochilishida aloxida ta’sirchanlik kasb etadi. Tinglovchi- tomoshabin musika orqali Kimyoning og‘ir dardga mubtalo bo‘lganligini yanada kuchliroq xis etadi.

Musikali psixologik monolog pauzasida Kimyo qizining takdirini o‘ylab azob chekadi, qalbida zolim erga nisbatan g‘azab avj oladi. Qahramonning ichki tug‘yoni, his-xayajonini oddiy so‘z bilan ifoda qilish qiyin bo‘lgan taqdirda, unga musiqa bilan ariya ko‘makka keladi, ta’sirchanlik yanada ortadi. Buning uchun ijrochi qahramonning holati bilan yashab ariya aytishi, ariyaning pauzalarida hayotiy xaqiqat, fikrlar kurashi o‘z ifodasini topishi lozim. “To‘rt devor qo‘ynida yo‘qdur yuragi qon men kabi”, - so‘zidan so‘ng pauza qilinadi. Bu psixologik musiqali pauza jarayonida Kimyo eziladi, Xojining zulmi tufayli qalbi tirnaladi, achchiq zahar-zaqqum turmushi birma-bir ko‘z oldidan o‘ta boshlaydi. Bu pauza jarayonida onaning ichki kechinmasidan qizining kayg‘usi bilan tashvish chekayotganligini, eridan qattiq noroziligini anglaymiz, uning dardiga dard, alamiga alam ko‘shilayotganligini chuqur idrok qilamiz. Musiqali psixologik pauza jarayonida ijrochidan musiqani chuqur his qilishi, Kimyoning tushib qolgan holati bilan yashashi, uning ayanchli kismatini tushunishi, ruhiy olamida sodir bo‘layotgan kuchli fikrlar kurashini idrok qilishi, Nurxonning taqdiri bilan kechinishi, muomala-munosabatda bo‘lishi, Kimyoning ariyasini mungli, dardli ovoz bilan aytishi, musiqali pauzada kuchli psixologik holatda qolishi taqozo etiladi. Garchi musiqali psixologik pauzaga qiska vaqt berilsada, dirijyor ijrochiga butun vujudi bilan kahramonning fojiali hayotini ko‘z oldiga keltirib, o‘z munosabatini bildirishiga yordam berishi lozim. “Qilmishi faryodu o‘z holiga

hayron men kabi", - Darhaqiqat Kimyoning faryodini cheki yo‘q. U iztirobli, xayajonda, hayot unga kulib boqmadi. Erining adolatsiz munosabatidan Kimyoning qalbi lag‘cha (cho‘g‘) bo‘lib yonadi. U Nurxonning baxtli bo‘lishini orzu qiladi, lekin bu orzu-umidlari eri tufayli puchga chiqadigan bo‘ldi. Bunga ich-ichidan norozi, qarshi, Xojining badfe'lligini yomon ko‘radi, la'natlaydi. qizini ham o‘zi kabi hayoti zulmat bilan o‘tishini istamaydi. Ijrochi mazkur musiqali psixologik pauzada qahramon ichki dunyosida sodir bo‘layotgan qarama-qarshi fikrlar kurashi bilan yashashi, Kimyo tomonidan keyingi aytiladigan so‘zlar ma'nosini, Xojini ko‘z oldiga keltirishi va unga o‘z munosabatini bildirishi lozim. "Yor tutib bu dunyoda yorning vafosin ko‘rmagan" , - dan so‘ng musiqali pauza qilinadi. Kimyo vafodor yorni orzu qilgan edi, lekin uning eri Xoji yuzaki qaraganda yumshoq va muloyim gapirsada, xanda va kinoyali so‘zlari bilan kishining jonini sug‘urib oladigan shaxs. Kimyo Xoji bilan turmush qurib nima ko‘rdi, azoblandi, xo‘rlandi, ezildi, qiziga ham bunday hayotni ravo ko‘rmaydi. U yorug‘ dunyoga kelib ichi to‘la armon bilan o‘tmokda. Ijrochi musiqali psixologik pauza davomida yuqorida keltirilgan manzaralarni, fikrlarni ko‘z oldiga keltirib, onaning og‘ir ichki kechinmasini chuqur idrok qilib, tomoshabinning qalbiga yetkazib, unda zarur bo‘lgan xissiyot uyg‘otishi darkor. Kimyo yaratilganiga pushaymon yeydi. "Dunyoga kelganligiga ming pushaymon men kabi", - deydi. Ana shundan so‘ng, musiqada bo‘lganidek uzunroq musiqali psixologik pauza qilinadi. Bu psixologik musiqali pauzada Kimyoning dardi-alami zo‘rayadi, musiqa ham uning ichki olamida kechayotgan iztirobini, qalb kechinmasini chuqur ifodalaydi. Qahramonni avj parda tomon yetaklay boshlaydi. Kimyoning nolasi, finish avj nuqtaga chiqadi, yuragi g‘am-g‘yccaga to‘lib toshadi, tug‘ilganiga pushaymon bo‘ladi. Zolim erning zulmidan dod deydi, qizining bebaxtligiga, taqdiriga kuyadi, qalbi o‘rtanadi. U kimdan najot so‘rashini bilmaydi. Psixologik musiqali pauza jarayonida onaning hayolida Haydar gavdalanadi, qani u tezroq kela qolsa-yu, dardini, Xojining niyatini aytsa, ona qiynoq o‘tida qoladi. Axir eri bilan Haydar qattiq urishganku. U Haydar kelarmikan degan fikr bilan hayolga cho‘madi. Ijrochi musiqali psixologik pauzada ona dilida ro‘y berayotgan o‘y fikrlar kurashini qalbi bilan xis qilishi, tinglovchi-tomoshabinning shuuriga yetkaza olishi kerak. Buning uchun u onaning o‘rniga o‘zini qo‘yishi, agarda men shu onaning o‘rnida bo‘lsam nimalar qilgan bo‘lardim, degan savolni o‘ziga berishi, uning iztirobini, ichki dunyosini chuqur o‘rganishi va buning uchun o‘z ustida tinmay, uzluksiz mexnat qilishi, izlanishi taqozo etiladi. Bundan tashqari Kimyoning ariyasini, undagi musiqali psixologik pauzani qalban his qilishi maqsadga muvofiqdir. Kimyo iztiroblarini ifodalovchi musiqani eshita olishi, shunga yarasha munosabatda bo‘lishi, shu topdagi holatini ko‘z oldiga keltirishi lozim. Qizining g‘am-tashvishi bilan yurak bag‘ri yanada o‘rtanadi. Xozircha Xojining niyatini qiziga aytgani yo‘q. Mabodo aytsa, u ham do‘zax o‘tida qovirilishi tabiiy. Ona battar eziladi. Qani endigi yuragidagi dard, alamini xaloyiqqa aytsa, ammo aytolmaydi, chunki Xoji xech kimga bu xaqda ovoza qilmaslikni aks xolda bo‘g‘ib o‘ldirajagi tayinlangan, shuning uchun u gapini ikki qilishga qo‘rqadi. Bu fikrlar psixologik musiqali pauza jarayonida onaning qalbida Xukm suradi. U tilida bu fikrni aytmaydi, ammo dilida sodir bo‘lib turadi. Bu fikrlar tomoshabinlar ongida ham ro‘y beradi, u onaning qalbida sir saqlanib yotgan ichki qalb so‘zlarini o‘z akli, idroki bilan topadi, onaning fojiali hayotiga achinadi, Xojiga nisbatan g‘azabi alangaoladi, Kimyoning, Nurxonning taqdirlariga hamdard bo‘ladi.

Ijrochi keltirilgan voqealarni qalbi bilan sezishi, musiqani chuqur his qilishi, ko‘z oldidan onaning ayanchli qismatini kinolentadek o‘tkazib, unga munosabat bildirishi lozim. Onaning faryodi yana avjiga chiqadi. "Yo‘q, jahon ahlida bir zoru parishon men kabi", - so‘zidan keyin musiqali pauza qilinadi. Kimyo uz qismatidan, taqdiridan noliydi. Uning ko‘z oldida qizi gavdalanadi, u bilan hayolan so‘zlashadi, yuragidagi dardini aytishga botinolmaydi, qalbi tirnaladi. O‘zini ko‘yarga joy topolmaydi. Yana beixtiyor Haydarni eslaydi, qizi fakat u bilan baxtiyor bo‘lishi mumkin. Ammo endilikda nima bo‘ladi, ularning sevgisi Xoji tomonidan poymol qilinyaptiku. U eriga nisbatan g‘azabi avj nuqtaga chiqadi, uni la'natlaydi. Xojidan chekkan azoblarini o‘ylab, kurashgaotlanadi. Ijrochi pauza mobaynida ona qalbida sodir bo‘layotgan ichki holatini, ona ariyasidagi keyingi aytiladigan so‘zlar ma'nosini bir zum ko‘z oldiga keltirib, imo-ishorasi, ko‘z qarashlari, xatti-xarakati bilan psixologik musiqali pauzani chuqur his qilib, shunga yarasha munosabat bildirishi maqsadga muvofiqdir.

"Zolim erning dastidan chekdim hamisha qayg‘ular", - so‘zidan keyin musiqali pauza qilinadi. Kimyo bu psixologik pauza davomida umri zindonda o‘tayotganligini, erning zulmidan qattiq aziyat chekayotganligini, har bir qadamini o‘ylab, o‘lchab bosishga majbur ekanligini, uning tushib qolgan og‘ir ichki holatini, kayfiyatini,

onaning borgan sari toqati toq bo‘layotganligini, bir kunmas bir kun uning ichidagi dard-alamlari yuzaga chiqishini chuqur idrok qilamiz. Zero, Kimyo Xojining har qanday zulmiga sabr-toqat bilan bardosh berdi, dardini, g‘amini ichiga yutdi, sil kasaliga mubtalo bo‘ldi. Erining qarori dard ustiga chipqon bo‘ldi, u fikrlar qiynog‘ida qoladi, ko‘ngli nolon, bag‘ri vayron bo‘ladi. Ijrochi onaning ichki kechinmasida sodir bo‘layotgan kuchli tug‘yonlar kurashi bilan yashab, xuddi onaning kechinmasi o‘zi bilan sodir bo‘layotganday his qilishi lozim. Ona ariyasini aytib shunday jozibali bo‘yoklarda ijro etishi joizki, tinglovchi-tomoshabinning qalbiga ta’sir etsin: “Kim bu g‘am zindoni ichra bo‘ldi vayron men kabi?”, - Kimyo ariyasini ijro etuvchi oxirgi bandlarini o‘pkasi to‘lib, bag‘ri xun bo‘lib aytishi, uning umri Xojining uyida xazon bo‘lib Ulgurganligini chuqur anglashi kerak. Kimyoning ichki psixologik monolog-ariyasi tugashi bilan orkestrda mungli kuy sadolari chalinib, psixologik musiqali pauza jarayoni to Nurxon sahnaga kirib kelguncha davom etadi. Mana shu psixologik musiqali pauzada Kimyo o‘zini tutolmay xo‘ngrab yig‘lab yuboradi, u sarosimada dam Xoji ketgan tomonga, dam ichkariga — Nurxon tomonga karab bezovtalanadi. U o‘zini igna uchida yurganday his qiladi. Ichidagi dardi uni qiynoq o‘tiga soladi. Hozir to‘satdan Nurxon chiqib qolsa, unga ichini tirnab yotgan alamni qanday aytadi. U qalbida sodir bo‘layotgan savollar girdobida azob chekadi, qizining taqdiri tinchlik bermaydi. Hali-hamon Xoji kelib indinga bo‘ladigan to‘y taraddudini gapirsa, unda xoli nima kechadi? Shuni aytish kerakki, ijrochi Kimyoning ichki monolog ariyasi tamom bo‘lgandan keyingi bastakor tomonidan berilgan psixologik musiqaning so‘nggi taktigacha onaning xolati bilan yashab, musiqani eshitib, uni yuragi bilan xis qilib turishi kerak. Kimyoning ichki musiqali monolog-ariyasini va undagi psixologik musiqali pauzalarni tinglovchi-tomoshabin qalbiga yetkazish, undazarur bo‘lgan ta’sirlanishni uyg‘otish, hissiyotni ta’minlash lozim. Bu avvalo ijrochining maxoratiga bog‘liq. Psixologik musiqali pauza davomida qahramonning ichki dunyosida sodir bo‘layotgan kuchli qarama-qarshi fikrlar kurashini, xolatini, kayfiyatini, ichki tug‘yonini ijrochi chuqur o‘rganib, o‘zlashtirib olishi muxim ahamiyat kasb etadi. Ijrochi avvalo “Nurxon” musiqali dramasini sinchiqlab o‘qishi, onaning ariyasini aytishdan oldin Kimyoning Xoji bilan bo‘lgan sahnasini ko‘z oldiga keltirib, unga munosabat bildirishi, ariya boshlanishidan ilgari chalingan kuyni eshitib, xis qilib, so‘ngra mungli, ichki dard bilan obraz tushib qolgan holatida aytishi lozim. Solist-vokalist qanchalik yaxshi ovozga ega bo‘lmasin, chiroyli ariya aytmasin, agar so‘zlarning mazmunini chuqur ochib bermas ekan, u ariya ta’sirli bo‘lmaydi. Keltirilgan Kimyoning ichki musiqali monolog-ariyasi kahramonning ichki dunyosini ta’sirli ochishga, o‘sha voqelik va sharoit bilan yashashga, tinglovchi-tomoshabinni ham o‘sha olamga olib kirishga undaydi. Kimyoning ariyasidagi so‘zlar musiqa bilan, musiqa matn bilan chambarchas bog‘lanib uyg‘unlashib ketgan. Vokal san’atida faqat aniq va ravon gapirishning o‘zi kifoya qilmaydi, chunki ariyaning imkoniyatlari keng bo‘lib, bitta so‘zni ming xil ohang va ma’no bilan aytish mumkin. Qolaversa, tembr, tovush buyoklari obrazning nozik tomonlarini ta’sirli ochishga, ijrochining fikr va tuyg‘ularini tnglovchi-tomoshabin qalbiga tez singishida muxim ahamiyat kasb etadi. L.Sarimsoqova ijrosidagi Kimyoning “To‘rt devor” ariya-monologi — 8 takt, kirish musiqasi bilan boshlanadi. 16 takt ichida ariya kuylanadi va “Soch yulib nola qilib, aylay yoqamni poralar” jumlasidan oldin 4 takt musiqali pauza ketadi. So‘ngra, yana bir takt pauza, keyin “Yo‘q jahon ahdida bir zoru parishon men kabi” jumlasi aytiladi va nixoyat 4 takt musiqa bilan tugallanadi. Shuni ham e’tirof etish kerakki, ariya musiqa misrasining oxirida 3 va 2 choraklik cho‘ziq nota-parda va har bir musiqa misrasining boshlanish oldidagi bir chorak pauza, har bir misradan so‘ng yangi pauza bordek tuyuladi. Mana shu pauzaga o‘xshash cho‘ziq (nota) pardalar va bir choraklik pauzalar shu qadar Kimyoning ichki his-tuyg‘u va tug‘yonlarini chuqur va ta’sirli aks ettirishi tufayli, o‘rtadagi 1 va 4 taktli pauzalardan ta’sir etish kuchi ulardan kam emas. Ariya pastki ovoz (metsso — soprano) uchun yozilgan, ariya diapozoni kichiq oktava “lya ” pardasidan 2 takt va “re” notasiga borib voqea rivojlanadi. Kimyo obrazi L.Sarimsoqovaning shoh obrazlaridan hisoblanadi. Ayniqsa Kimyoning “To‘rt devor” ariyasi mahorat bilan jozibali, ta’sirli ijro etilgan bo‘lib, musiqali drama teatridagi aktyorlar va san’at institutining musiqali drama bo‘limidagi talabalar uchun ijodiy maktab vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komiljonov. O. Aktyorning xormeyster bilan ishlashi. 2024.Toshkent.
2. Yarbekov E. (2024). Sahna nazariyasi. Oriental Art and Culture, 584–590-b.
3. Qobilov. N, Muhammadiyev. Sh. Aktyorning dirijyor bilan ishlashi (musiqali teatr aktyorrligi) 2020.
4. Гротовский, Е. Встреча с самим собой / Театральная жизнь. -№ 16.-С. 24-26.